

SUD TIZIMIDAGI ADOLATSIZLIK VA INSON HUQUQLARI: TOLSTOY, KAFKA VA KAMYU ASARLARIDA TANQIDIY TAHLIL

Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna

*Ingliz tili o'qituvchisi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
"Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslari" kafedrasи*

НЕСПРАВЕДЛИВОСТЬ В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ И ПРАВА ЧЕЛОВЕКА: КРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ТОЛСТОГО, КАФКИ И КАМЮ

Давлатова Шахноза Мухаммадиевна

*Преподаватель английского языка, Институт
предпринимательства и педагогики города Деноу, Кафедра
иностранных языков и литературы младших курсов*

INJUSTICE IN THE JUDICIAL SYSTEM AND HUMAN RIGHTS: A CRITICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF TOLSTOY, KAFKA, AND CAMUS

Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna

*Teacher of English, Institute of Entrepreneurship and Pedagogy of
the city of Denau, Department of Foreign Language and Literature
of junior courses*

Annotatsiya: Mazkur maqola Lev Tolstoyning "Tirilish", Frans Kafkaning "Jarayon" va Alber Kamuning "Begona" romanlari asosida sud tizimi vaadolat tushunchalarining tahliliga bag'ishlangan. Ushbu adabiy asarlarda sud jarayonlarining adolatsizligi, inson huquqlarining poymol etilishi va davlat tomonidan taqdim etiladigan huquqiy yordamning samarasizligi kabi masalalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: sud tizimi, adolat, inson huquqlari, Lev Tolstoy, Frans Kafka, Alber Kamyu, huquqiy yordam, represiya.

Аннотация: В данной статье анализируется изображение судебной системы и концепции справедливости в романах "Воскресенье" Льва Толстого, "Процесс" Франца Кафки и "Посторонний" Альбера Камю. Эти литературные произведения освещают такие вопросы, как судебное беззаконие, нарушения прав человека и неэффективность государственной юридической помощи.

Ключевые слова: судебная система, справедливость, права человека, Лев Толстой, Франц Кафка, Альбер Камю, юридическая помощь, репрессии.

Annotation: This article analyzes the depiction of the judicial system and the concept of justice in "Resurrection" by Lev Tolstoy, "The Trial" by Franz Kafka, and "The Stranger" by Albert Camus. These literary works highlight issues such as judicial injustice, human rights violations, and the inefficiency of state-provided legal assistance.

Key words: judicial system, justice, human rights, Lev Tolstoy, Franz Kafka, Albert Camus, legal assistance, repression.



E-mail: davlatova.sh@bk.ru

Orcid: 0009-0009-9983-
3355

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Sud tizimi har qanday jamiyatning asosiy institutlaridan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi adolatni ta'minlashdan iborat. Biroq, tarix davomida ko'plab adabiy asarlarda sud jarayonlariningadolatsizligi, inson huquqlarining poymol etilishi va sud qarorlarining davlat mafkurasi xizmatiga aylanishi tasvirlangan. Ayniqsa, Lev Tolstoyning "Tirilish", Frans Kafkaning "Jarayon" va Alber Kamyuning "Begona" romanlari bu mavzuda asosiy adabiy dalillarni taqdirm etadi [4].

Mazkur tadqiqot ushbu uchta asarda sud tizimi faoliyatining turli jihatlariga qanday yondashilganini tahlil qiladi. Tadqiqot ushbu masalalarni adabiy matnlarni qiyosiy tahlil qilish orqali o'rganadi va sud tizimi orqali amalga oshirilayotganadolatsizliklarning adabiyotdagi aksini yoritadi. Tadqiqotda Lev Tolstoyning "Tirilish", Frans Kafkaning "Jarayon" va Alber Kamyuning "Begona" romanlaridagi huquqiy tizim tasviri qiyosiy tahlil qilinadi. Bu asarlar orqali turli siyosiy tuzumlarda sud tizimining inson huquqlariga qanday ta'sir qilganini ko'rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Lev Tolstoy o'zining "Tirilish" romanida mahbuslarga yoki boshqa odamlarga zulm qilishi mumkin bo'lgan davlat xizmatchilarining aksariyati moddiy jihatdan nochorligi uchun o'zları xohlamaydigan ishlarni qilishga majbur bo'layotganiga e'tibor qaratadi. Ular o'ta kambag'al bo'lgani uchun ham 3-4 tangadan iborat bo'lgan maoshlaridan judo bo'lmaslik maqsadida quldek ishlashga, har qanday topshiriqni so'zsiz ado etishga tayyor [3].

Muallif jamiyatda podsho tuzumiga qarshi dushmanlik kayfiyatida bo'lgan, siyosiy mahbus ekanligidan g'ururlangan odamlar toifasi allaqachon paydo bo'lganini Rossiya imperiyasi qulashidan o'n sakkiz yil avval jasorat bilan bildira olgan edi. Bu vaqtga kelib 71 yoshga kirgan, ko'plab tillarda minglab kitoblarni o'qib, barcha sohalar bo'yicha qomusiy bilimlarga ega bo'lgan, Podsho Rossiyasi davlatchiligi va xalqining ijtimoiy ahvolini yaxshi biladigan faylasuf Tolstoy bu tuzumning halokatga uchrashi mumkinligini his etgan, xalq ichidan chiqqan mavjud ahvolni ijobjiy tarafga o'zgartirishni niyat qilgan jasoratli kishilarning faoliyatiga

xayriyohlik bildirgan. Bu holat Nexlyudovning katorgaga ketayotgan Novodvorov, Mariya Pavlovna, Markel Kondratyev, Nabatov singari inqilobchilar bilan iliq munosabatida hamda ularga nisbatan samimiy ehtiromida namoyon bo'ladi. Biroq Lev Tolstoy sotsializm tarafdoi emasdi. U «Anna Karenina»da Levning, «Tirilish»da Nexlyudovning yerni unda ishlovchi dehqonlarga manfaat keltiradigan shaklda bo'lib berishini ma'qullagan bo'lsa ham, xususiy mulkchilikni yo'q qilish va terror yo'li bilan barcha mulkdorlar boyligini musodara qilib, o'zlarini qatag'on qilishni kasb qilib olgan bolsheviklar tuzumini aslo yoqlamas edi. Agar Tolstoy yanada uzoq umr ko'rib, bolsheviklarning ashaddiy qonxo'rliklariga guvoh bo'lganida, ularni podsho tuzumini tanqid qilganidan ham ko'proq tanqid qilar, ehtimol Pasternak va Soljenitsin kabi vatanini tark etib, zulmni qoralab, adolatni yorlaqab, asarlar yozishda davom etardi [3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Romanda jamiyatning turli qatlamlari va toifalarining ahvoliga teran nigoh bilan nazar tashlangan. Yozuvchi harbiy xizmatdagi hayot Nexlyudov uchun samarasiz va zararli bo'lganini e'tirof etadi.

Darhaqiqat, ulug' yozuvchi podsho armiyasining ahvoliga to'g'ri baho bergan edi. Asar yozilgan 1899-yildan 16 yil o'tib 1915-yilda Rossiya imperiyasi qo'shinlari I jahon urushi frontlarida o'ta og'ir mag'lubiyatga duch kelib, 850 ming askar va zabitidan ayrildi, 900 mingdan ziyod askar asirga tushdi. Hokimiyat tepasiga Bolsheviklar kelgach, qo'shinlar urushdan chiqdi va 1918-yil martida Rossiya uchun o'ta og'ir va asoratl bo'lgan xalqaro Brest tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sababi Lev Tolstoy e'tibor qaratgan jihat – podsho imperiyasi armiyasining salohiyati yaxshi emasligi bilan bog'liq edi [6].

Ko'p asrlar mobaynida xristian rohiblari ham, musulmon ruhoniylari ham odamlarning mustaqil ravishda muqaddas kitoblarni mutolaa qilishlarini xohlamaganlar. Rohiblar ilohiy manbaning «cherkov tafsiriga xilof ravishda» sharhanishi natijasida odamlarning o'zlariga Lev Tolstoy singari ishonmay qolishini yaxshi bilganlar.

Islom olamida kishilarni uzoq muddat mobaynida Qur'on mazmun-mohiyatidan uzoqda tutishga urinish, xalqni «bir zarbda tizzalarigacha,

ikkinchi zarbda bellarigacha» qabilidagi betayin rivoyatlar bilan chalg‘itish millatni qoloqlik va jaholat botqog‘iga botirdi. Abdurauf Fitratning «Chin sevish» dramasida mustamlakachilarni qattiq qo‘rquituvchi narsa Qur’on ekani aytildi. Lev Tostoy faylasuf sifatida butun umri davomida Injilni mustaqil ravishda o‘qigan, umuman olganda, xristian dinining falsafasi va cherkov faoliyatining mazmuni yaxshi bilgan. Bu holat provaslav ruhoniylarini tashvishga solgan hamda ularda Tolstoy shaxsiyatiga nisbatan adovat paydo qilgan edi [5].

Yuqorida Tolstoyning bu asarni yozishdan avval sud faoliyati haqidagi ko‘plab ilmiy-nazariy adabiyotlarni mutolaa qilganini ta’kidlagan edik. Shu omil sababli hayotiy voqelik badiiy voqelikka aylanib, asosiy qahramon Nexlyudov ham shu mavzuda izlanishlar qilishga urinadi. Nexlyudovning bu boradagi asosiy, tugal xulosasi romandagi sud tizimi faoliyatiga berilgan yakuniy baho singari yangraydi. «Sud jamiyatni hozirgi ahvolda saqlash maqsadini ko‘zlaydi. Shuning uchun ham sud jamiyat saviyasidan yuqori turgan va jamiyatni ko‘tarishga uringan siyosiy jinoyatkor deb ataluvchilarni va jamiyat saviyasidan past bo‘lib jinoiy shaxs deb ataluvchilarni ham ta’qib etadi, qatl qildiradi» [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). “Tirilish” romanida Nexlyudov Maslovaning sud jarayoni davomidaadolatsizlikka duch kelganini ko‘radi. Sudlanuvchilarga tayinlangan davlat advokatlari sust va layoqatsiz ekani, ular aslida hukumat topshirig‘ini bajarib, sud jarayonini rasmiyatchilik uchun o‘tkazayotganini ko‘rish mumkin.

“Jarayon” romanida esa K.Yozefning hech qanday asosli ayblovsiz hibsga olinishi va sud jarayonining bevosita davlat byurokratiyasi qo‘lida o‘yin vositasiga aylangani tasvirlangan.

“Begona” romanida Mersoning asl jinoyati emas, uning jamiyat tomonidan qabul qilingan normalarga zid harakatlari (onasi o‘limida ko‘z yoshi to‘kmasligi) asosiy ayblov sifatida ko‘riladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Tolstoy, Kafka va Kamyu o‘z asarlarida sud tizimini inson huquqlarining himoyachisi emas, balki repressiya vositasi sifatida tasvirlagan.

Tolstoyning “Tirilish” romanida davlat advokatlari va sud jarayonlarining nohaqligi ochiq tanqid qilinadi, Kafka esa “Jarayon” orqali sud tizimining sirli va byurokratik tuzilishini ko‘rsatadi.

Kamyuning “Begona” romanida esa sudlanuvchini jazolash uchun obyektiv dalillar emas, balki jamiyatning axloqiy me’yorlari asosiy rol o‘ynaydi.

Ushbu natijalar sud tizimining mustaqil bo‘lishi zarurligini va davlat tomonidan boshqariladigan huquqiy tizimlar ko‘pincha repressiya vositasiga aylanishini ko‘rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Marya Pavlovna, Markel Kondratyev, Novodvorov, Nabatov singari «jamiyat saviyasidan yuqori» turgan, Maslova kabi «jamiyat saviyasidan past» bo‘lgan kishilarni jazoga hukm etgan sud o‘zining asosiy vazifasini uzoq muddat uddalay olmadı. XX asr boshlariga kelib bu jamiyat ulkan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan yuzlashdi. Tolstoy, Kafka va Kamyuning asarları sud tizimining adolatsizligi va inson huquqlarining poymol etilishini badiiy tasvirlash orqali fosh etadi. Ushbu asarlar orqali sud jarayonlarining rasmiyatchilik, byurokratik to‘siqlar va davlat tomonidan tayinlangan advokatlarning samarasizligi sababli inson huquqlariga qanday tahdid solishi ko‘rsatib berilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Camus A. L’Étranger. The Stranger. Gallimard. 1942.
2. Kafka F. Der Prozess. The Trial. Verlag Die Schmiede. 1925.
3. Tolstoy L. Воскресение. Resurrection. T. F. Unwin. 1899.
4. Arendt H. Eichmann in Jerusalem: A Report on the Banality of Evil. Viking Press. 1963.
5. Foucault M. Surveiller et punir: Naissance de la prison. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. Gallimard. 1975.
6. Habermas J. Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. MIT Press. 1996.
7. Rawls J. A Theory of Justice. Harvard University Press. 1971.
8. Scarry E. The Body in Pain: The Making and Unmaking of the World. Oxford University Press. 1985.
9. Said E. W. Orientalism. Pantheon Books. 1978.
10. Derrida J. Force of Law: The "Mystical Foundation of Authority". Cardozo Law Review, 11(5), 1992. 919-1045.